

15-Noyabr, 2025-yil

TALABALARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Qalandarova Donoxon Sabirovna

- “University of economics and pedagogy”NOTM,

“Iqtisodiyot” kafedrası assistenti

donoqalandarova@gmail.com

Annotatsiya: XXI asrni axborot texnologiyalari asri deb bejiz aytilmayapti. Chunki ilmiy-texnika taraqqiyoti tufayli insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratildi. Yangi yuqori texnologiyalar jamiyat a’zolari turmushini istalgan mahsulot bilan ta’minlashga, sanoat-xizmat sohasini jadal rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish imkonini berdi.

Kalit so‘zlar: axborot, madaniyat, texnologiyalar, internet, OAV, axborot sohalari, elektron portallar.

Axborot yaratish va tarqatish sohasida ham ilgari ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan sur‘at va ko‘lamga erishildi. Keyingi ellik yilda axborot uzatish 300 ming marotaba ortgan bo‘lsa, iste’mol narxi ming barobar arzonlashgan. Bunday tezlik va arzonlanish Yer yuzida yagona axborot makonini paydo bo‘lishiga sharoit yaratdi. Shu bilan birga soha taraqqiyotining uzviy qismi sifatida bizning mamlakatimizda ham OAVning nodavlat sektori vujudga keldi, Internet tarmog‘idan foydalanuvchilar soni ham kengayib bormoqda.

OAV bugungi kunda xabar yetkazuvchi vositadan ko‘ra ko‘proq qurolga aylanayotgani masalaning ikkinchi tomonidir. Yaqin o‘tmishda bir davlat ikkinchisini zabt etish uchun turli harbiy texnika va shu kabi qurollardan foydalangan bo‘lsa, hozirga kelib bu kabi qurol-yarog‘larning ahamiyati kun sayin pasayib bormoqda va ularning o‘rmini ommaga axborot tarqatish bilan shug‘ullanuvchi televidenie, radio, gazeta va internet kabi vositalar egallamoqda. Hozirgi zamonaviy dunyoda biror xalqni yoki mamlakatni tobe qilmoqchi bo‘lgan kuch uchun ularni burungidek qirib tashlashga hojat yo‘q, ularni ongini zabt etish kifoya qiladi.

XX-asrning ikkinchi yarmi tezkor, keng ko‘lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri sifatida, ular hayotning deyarli barcha jabhalariga va inson faoliyatiga kirib borishi, shuningdek, axborot makonining globallashuvi, butun jahon rivojiga ta’sir ko‘rsatgan va ko‘rsatayotgan omil sifatida e’tirof etiladi. E’tiborli jihati mamlakat ichidagi va tashqi dunyodagi faol axborot almashinuviga odamlar ehtiyojining juda ortib borishidir. Axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning potentsiali va imkoniyatlarining o‘sishi, uning jamoatchilik va davlat hayotidagi turli xil yo‘nalishlarda keng tarzda ishlatilishi yangi XXI asrdagi odamzod taraqqiyotini aniqlab beruvchi muhim omillarning biri bo‘la oladi. Shuningdek, oxirgi yillarda axborot resurslaridan davlatlararo to‘qnashuvlar, geosiyosiy maqsadlarga erishish uchun maydon sifatida faol foydalanilmoqda. Bu, ayniqsa, mazkur sohada sezilarli darajada

15-Noyabr, 2025-yil

manfaat keltiradigan zamonaviy axborot texnologiyalariga ega rivojlangan davlatlarga xosdir.

Hozirgi vaqtda deyarli barcha davlatlar axborot sohasida tadrijiy rivojlanish va turli xil tazyiqlar mavjud bo‘lgan sharoitlarda uning amal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha faoliyatni kuchaytirdilar. Shuning uchun XXI-asrni axborot texnologiyalari asri deb bejiz aytmayptilar. Bu ma’noda Akinavada 2000-yil 22-iyulda jahonning rivojlangan 8 mamlakati rahbarlari tomonidan imzolangan global axborot jamiyati xartiyasini eslash maqsadga muvofiqdir. Mazkur xartiya yangi asrda jahon hamjamiyati rivojlanishining muhim omili – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘lib hisoblanishidan yaqqol dalolat beradi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti insoniyat va jamiyat moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun ulkan imkoniyatlar yaratdi. Yangi, yuqori texnologiyalar jamiyat a’zolari turmushini istalgan mahsulot bilan ta’minlashga sanoat xizmat sohasini jadal rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish imkonini beradi. Axborot yaratish va tarqatish sohasida ham ilgari ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan sur’at va ko‘lamga erishildi. Kishilar o‘rtasida xabar etkazishni ta’minlashga qobil hisoblash texnikasi, axborot aloqa tizimi, internet tizimi, shuningdek, boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti va faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi. Hozirgi kunda ijtimoiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o‘rtasida mutanosiblik mavjud bo‘lgan jamiyatgina har tomonlama uyg‘un rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat o‘zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa axborotga bo‘lgan talab hamda ehtiyojini to‘liqroq qondirishga intiladi. Yuqorida aytib o‘tilgandek, bugunga kelib ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning miqyosi mazkur sohalarda to‘plangan va almashinayotgan axborotlar, ularning almashinish sur’ati va o‘zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi.

Axborot (lotincha “informatio” – tushuntirmoq, bayon etmoq) zamonaviy fan va siyosatning asosiy tushunchalaridan biri; dastlab kishilar tomonidan og‘zaki, keyinroq yozma yoki boshqa shakllarda uzatilgan ma’lumot. XX asrning o‘rtalaridan boshlab insonlararo, inson-avtomat, avtomat-avtomat o‘rtasidagi ma’lumot hamda hayvonlar va o‘simliklardagi signal almashinuvi, hujayradan-hujayraga muayyan belgilarning uzatilishi va shu kabilarni anglata boshladi. Ijtimoiy hayotga tatbiqan axborot – kishilar, predmetlar, faktlar, hodisalar, jarayonlar va shu kabilar haqidagi ma’lumotlar majmuini anglatadi.

Axborotlashtirish – axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish hisobiga fuqarolar, davlat hokimiyati va o‘z-o‘zini boshqarish organlari, tashkilotlar va jamoat birlashmalarining axborot sohasidagi ehtiyojlarini qondirish, huquqlarini ro‘yobga chiqarish maqsadida optimal sharoitlarni yaratish uchun tashkil etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnik jarayonlar majmui.

Informatsion jarayonlar – axborotni qidirish, yig‘ish, qayta ishlash, to‘plash, saqlash va tarqatish jarayoni.

Axborot tizimi (informatsion sistema) – informatsion jarayonlarni amalga oshiruvchi tartibga solingan hujjatlar hamda axborot texnologiyalari majmui.

15-Noyabr, 2025-yil

Axborot resurslari – muayyan (kutubxona, arxiv, fond, ma’lumotlar banki kabi) axborot tizimlaridagi alohida hujjatlar va hujjatlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy axborot – ijtimoiy va siyosiy hayot borasida jamiyat a’zolari, ijtimoiy guruhlar, siyosiy tashkilotlar o’rtasida almashinuv predmeti hisoblangan va ular o’z faoliyatida foydalaniladigan bilimlar, ma’lumotlar va xabarlar majmui.

Ijtimoiy-siyosiy axborotlar insonlar o’rtasida aloqalar, siyosiy jarayonlar, jamiyatni boshqarish, ilmiy, o’quv va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, targ’ibot va tashviqotni amalga oshirishda tobora muhim va ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. To’laligi, asoslanganligi va ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy-siyosiy axborotlarni ishlab chiqishda fan, ularni tarqatishda OAV muhim rol o’ynaydi.

Axborot madaniyati – texnik-texnologik va ijtimoiy-madaniy jihatlariga ega. Texnik-texnologik jihatdan axborot madaniyati axborotni olish, qayta ishlash, saqlash va etkazib berishga xizmat qiladigan texnik-axborot vositalari va ulardan oqilona foydalanish usullari haqidagi bilimlar tizimini anglatadi. Ijtimoiy-madaniy ma’noda axborot madaniyati insonning muayyan ma’naviy-axloqiy, siyosiy, huquqiy va estetik qadriyatlarini o’zlashtirilgan holda axborot maydonida hayotiy faoliyat ko’rsatishini anglatadi.

Axborot iste’moli madaniyati – axborot dunyosidan ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni saralab olish borasidagi bilimlar, qobiliyat va malakani o’zida ifoda etadi.

Axborotlashgan jamiyat – kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida shakllanayotgan va ijtimoiy hayotning barcha sohalarida axborot hamda informatikadan oqilona foydalanishga asoslangan sifatli holatini tavsiflovchi tushuncha. Axborotlashgan jamiyat nazariyasi asoschilari ijtimoiy rivojlanishni “bosqichlar almashinuvi” nuqtai nazaridan qaragan holda, uning shakllanishini qishloq xo’jaligi, sanoat va xizmatlar iqtisodiyotidan keyin paydo bo’lgan iqtisodiyotning to’rtinchi - “axborot sektori” yuzaga kelishi bilan bog’laydilar. Ularning fikriga ko’ra, industrial jamiyatning asosi bo’lgan kapital va mehnat axborotlashgan jamiyatda o’z o’rnini axborot va bilimga bo’shatib beradi.

Axborotlashuv jarayoni – jamiyatdagi iqtisodiy hamda ijtimoiy-madaniy o’zgarishlarga jiddiy ta’sir ko’rsatadi.

G’arb sotsiologlari fikriga ko’ra, axborotlashgan jamiyat:

texnika sohasida – ishlab chiqarish, iqtisodiyot, ta’lim va maishiy hayotga axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi;

iqtisodiy hayotda – axborotni tovarga aylanishi;

ijtimoiy hayotda – axborot turmush, hayot darajasi o’zgarishining asosiy omiliga aylanishi;

siyosiy sohada – keng miqyosda fikr almashishga zamin yaratuvchi xilma-xil axborotlarni erkin olishga yo’l ochilishi;

madaniyat sohasida – axborot almashinuvi davr ehtiyojlariga javob beradigan normalar va qadriyatlarni shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Ayni paytda axborotlashgan jamiyat:

15-Noyabr, 2025-yil

– uyda ishlashning kengayishiga, transport harakatining kamayishiga va buning oqibatida tabiatga tushadigan “yuk”ning keskin qisqarishiga olib keladi;

– ish kunining qisqarishi odamlarning uyda ko‘proq bo‘lishiga oilaviy muhitning barqaror bo‘lishiga zamin yaratadi;

– keyingi yuz yilliklarda kishilar shahar yashash va ishlash uchun eng qulay makon, degan xulosaga keldilar. Axborotlashuv jarayoni esa, qishloqdan turib ham butun olam bilan muloqot qilish, eng obro‘li tashkilotlarda ishlash, shahar aholisi bahramand bo‘layotgan madaniyat yutuqlarini istifoda etish imkonini yaratadi. Bu esa, o‘z navbatida nisbatan osuda va tinch bo‘lgan, tabiatga yaqin qishloqlarga qaytish yoki u erda doimiy qolish uchun zamin yaratadi;

– masofaviy ta‘lim bilim olishning eng qulay shakliga aylanish barobarida, aholining keng qatlamlari uchun hatto eng elitar oliy o‘quv yurtlari eshiklarining ochilishiga zamin yaratadi. Sodda qilib aytganda, ma‘lumotlilik ko‘p darajada insonning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lib qoladi. Ayni paytda, axborotlashuv jarayoni bir qator muammolarni ham keltirib chiqarmoqda: “Yumshoq erotika”dan tortib “ochiq pornografiya”gacha bo‘lgan hodisalar bilan bog‘liq muammolar ana shular jumlasidandir. Bunday holatlarning oldini to‘la-to‘kis olib bo‘lmaydi. Zero, axborot tarmoqlarining uzilishlarsiz ishlashi uning muhim sifatiy belgisi hisoblanadi va bu jarayon doimiy takomillashuvni boshdan kechirmoqda.

Demak, yuqoridagi kabi “muammolar” yo‘liga qanchalik to‘siq qo‘yilmasin doimo ularni “aylanib” o‘tish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Yana bir muammo mualliflik hamda intellektual mulk huquqining buzilishi bilan bog‘liq. Shunday ekan, axborot tarmog‘ida ko‘pchilik qura olmaydigan hududlar yuzaga kelishi tabiiy. Bugungi kunda kompaniyalar o‘z axborotlarini himoya qilish va ruxsat etilmagan kirishlarning oldini olish uchun katta mablag‘lar sarflanayotgani ham shundan. Shu bilan birga muayyan axborotlarni yashirishdan tortib, uni noqonuniy ravishda e‘lon qilishgacha bo‘lgan ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladigan suiste‘molliklar ham kelib chiqishi mumkin. Axborot turli ijtimoiy qatlamlar, professional va milliy guruhlar vakillariga har xil ta‘sir qilish barobarida uni suiiste‘mol qilish amaliyoti turli guruhlarda bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Bu eng avvalo, axborot manbai minimal (televidenie, radio), ayrimlarda esa keng (internet, yangi telekommunikatsiyalar tizimi) bo‘lishi mumkin. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, bugungi kunda jamiyatda aynan axborotni olish, unga yo‘l topish sohasida keskin bo‘linish, tabaqalashuv sodir bo‘lmoqda. Yoshlar o‘zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchanligi hamda o‘z vaqt resursiga egaligi tufayli yuqori darajada kommunikativ faollik ko‘rsatadi. Boshqa guruhlarda esa nisbatan passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birinchi guruh uchun tobora faollashayotgan agressiv siyosiy ta‘sirga berilib ketish xavfi mavjudligida, ikkinchi guruhning esa pozitiv mazmunga ega axborotlar ta‘siridan tashqarida qolishi bilan belgilanadi.

Axborot iste‘moli madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi. Kommunikativ, regulyativ (tartibga solish), axborot, aksiologik

15-NOYABR, 2025-YIL

(baholash) kabi funksiyalar shular jumlasidandir. Biz tahlil etayotgan muammo doirasida axborot iste’moli madaniyatining aksiologik funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Masalan, Internet orqali juda ko‘p ijobiy ma’lumotlar bilan birga, Sharq madaniyatiga, xususan, kishilarimiz xulqu odobiga salbiy ta’sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgani, tabiiyki, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz g‘oyaviy tarbiyasiga salbiy ta’sir etishi mumkin. Axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish orqaligina bunday ta’sirlarning oldini olish mumkin. Shuningdek, “Biz ba’zan G‘arb madaniyati to‘xtovsiz kirib kelayotgani haqida taassuf bilan gapiramiz. Bu shunday kuchli oqimki, unga qarshi chiqish juda mushkul. Buning faqat bitta yo‘li bor. U ham bo‘lsa, Internetga o‘zimizga mos bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z vaqtida kiritishdan iborat”. Hamma gap mazkur resursdan kim va qanday maqsadlarda foydalanishida. Boshqacha aytganda, tarmoqdan illat qidirish bilan ovora bo‘lmasdan, uning imkoniyatlaridan yurtimiz shon-shuhratini dunyo miqyosida keng yoyish yo‘lida foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki, internet virtual, ammo, obyektiv hodisadir. Uning hayotimizga kirib kelishini nazorat qilib bo‘lmaydi. Odamlarimizni Internet tizimidan uzoqroq tutishga intilish emas, balki, undan oqilona foydalanishga o‘rgatish, axborot iste’moli madaniyatini yuksaltirishga harakat qilishimiz to‘g‘ri bo‘ladi. Zero, kishilarda axborot iste’moli madaniyati shakllangan bo‘lsa, milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabar, ma’lumotlarni “ baholash paytida, albatta, har bir shaxsning o‘z qarashlari, qadriyatlar tizimi muhim rol o‘ynaydi. Lekin, aksariyat hollarda bunday paytda, ayniqsa, baholanilayotgan hodisa o‘zga madaniyatga tegishli bo‘lsa, o‘zimiz mansub bo‘lgan madaniyat ruhimizga sindirgan qadriyatlar tizimi ustuvor bo‘ladi va butun bo‘y-basti bilan o‘zligini namoyon qiladi, madaniyatning baholash funksiyasi tufayli tanlanish sodir bo‘ladi, madaniyatdagi barqarorlik, har bir davrdagi ayniqlik, o‘ziga xoslik, ayni paytda, davomiylilik, vorislik ta’minlanadi” Shuning uchun, hozirgi davrda aholimiz, ayniqsa yoshlarimizning axborot uzatishning zamonaviy texnikasi va texnologiyasini mukammal darajada o‘zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun mamlakatimizda Internetdan foydalanish tizimini yanada rivojlantirish bilan birga, mazkur tarmoqqa milliy manfaatlarimiz aks etgan axborotlarni turli shakl va tillarda kiritib borish zarur. Zero, jamiyatimiz hayotining turli sohalari to‘g‘risida axborot beruvchi obyektiv, jozibador ma’lumotlarni Internet sahifalaridan keng o‘rin egallashi, O‘zbekiston global axborot makonidagi o‘rningining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Axborot kommunikatsiya tizimi, undagi o‘zgarishlar. Internet, elektron portallar. Bugungi kunda “Elektron hukumat” tizimi butun dunyoda, shu jumladan O‘zbekistonda keng rivojlanayotgan tizim hisoblanadi. Bu tizim fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari va davlat hokimiyati organlariga avvaldan shakllangan davlat xizmatlarini ko‘rsatishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni ko‘zda tutadi. Mamlakatimizda interaktiv davlat xizmatlarini jismoniy va yuridik shaxslarga davlat organlarining veb-saytlari va respublika hukumati portali orqali taqdim etish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etish keng yo‘lga qo‘yilgan. Hozirgi kunga qadar “Elektron hukumat” tizimining bir qancha loyihalari samarali amalga oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi hukumati “Gov.uz” portali tashkilotlar, yuridik va

15-Noyabr, 2025-yil

jismoniy shaxslar o‘rtasidagi elektron axborot munosabatlarining samarali dastagi hisoblanadi. Har bir fuqaro yoki yuridik shaxs vakili mazkur portaldan O‘zbekiston davlat hokimiyati haqida to‘liq ma’lumot olishi, shuningdek, u orqali muayyan hukumat organiga elektron shaklda bevosita rasmiy so‘rov yuborishi mumkin. 2013-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali doirasida, shu jumladan “bir darcha” rejimida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Yagona portal davlat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan, shu jumladan pulli asosda ko‘rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi. Yagona portalning asosiy vazifalari: foydalanuvchilarga davlat organlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish uchun imkoniyat berish; foydalanuvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyalash; foydalanuvchilarning davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirish; davlat organlariga murojaat qilinganda foydalanuvchilar uchun byurokratik to‘siqlarni qisqartirish va ularni bartaraf etish; “elektron hukumat”ni yanada rivojlantirish va davlat boshqaruviga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishda ko‘maklashish.

Yagona portal zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida interaktiv davlat xizmatlari olishda foydalanuvchining shart-sharoitlarini rivojlantirish va imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo‘ljallangan. Yagona portal orqali foydalanuvchiga bir tomonlama va ikki tomonlama shakldagi interaktiv davlat xizmatlari, shuningdek davlat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan tranzaksion xizmatlar ko‘rsatiladi. 2017 yil 1 fevral holatiga ko‘ra, portalga kelib tushgan murojaatlar soni 1036278 tani tashkil etdi. 2013 yilda yana bir portal “E-kommunal.uz” ishga tushdi. Bu portal uy-joy kommunal xizmatlari sohasidagi umumiy axborot infratuzilmasi bo‘lib, u aholi, nazorat organlari va uy-joy mulkdorlari shirkatlari, shuningdek, kommunal xizmatlar o‘rtasida axborot almashinuvini soddalashtiradi.

Portal orqali foydalanuvchilar kommunal xizmatlarining amaldagi tariflari bo‘yicha elektron kalkulyator yordamidan foydalanishlari, shaxsiy hisob raqamlarini kiritib, balanslarini tekshirib olishlari, qarzдорlik mavjud bo‘lgan hollarda to‘lovni onlayn usulda amalga oshirishlari mumkin. 2016 yil holatiga ko‘ra saytga 2518 ta murojaat kelib tushgan.

Bugungi kunda statistika, soliq va boshqa moliyaviy hisobotlarni tadbirkorlik subyektlaridan elektron ko‘rinishda yig‘ish va qayta ishlash tizimi ham tobora rivojlanib bormoqda. Xususan, Davlat soliq qo‘mitasining “soliq.uz” saytidan har qanday soliq to‘lovchi – yuridik va jismoniy shaxslar – maslahat olishi, elektron ko‘rinishda soliq hisoboti yoki daromadlar haqida deklaratsiya topshirishi, o‘z STIRini tasdiqlatishi mumkin. Bugungi kunda davlat statistika qo‘mitasi rasmiy sayti www.stat.uz orqali 11 ta interaktiv davlat xizmatini ko‘rsatmoqda. Davlat statistika hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish, O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ning amalda qaror topgan asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida

15-Noyabr, 2025-yil

axborotlar taqdim etish, korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bo‘yicha axborotlarni taqdim etish, davlat statistika hisobotlari shakllari blankalarini taqdim etish, statistik klassifikatorlar bo‘yicha axborotlar taqdim etish va shu kabi boshqa xizmatlar shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda davlat organlarida foydalanuvchilarni qiziqtirishi mumkin bo‘lgan ulkan axborot resurslari massivlari shakllangan. Davlat organlarining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotlarini ochiq ma’lumotlar sifatida e’lon qilinishi ochiq davlat boshqaruvining asosidir. Ochiq ma’lumotlarning e’lon qilinishi va ulardan foydalana olish imkoniyatining yaratilishi tufayli davlat organlari faoliyatining shaffofligi, jamoat nazoratini amalga oshirish imkoni, shuningdek jismoniy shaxslar va tadbirkorlar uchun yangi xizmatlar yaratilishi ta’minlanadi.

Davlat organlari faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar va axborotlarni ochiq ma’lumotlar ko‘rinishida e’lon qilinishi ulardan turli axborot resurslarini shakllantirishda manba sifatida va axborot tizimlarini, shuningdek, ham davlat organlari, ham tadbirkorlik subyektlari uchun xizmat va ilovalar yaratishda foydalanish mumkin. Internet tarmog‘ida ochiq ma’lumotlar uchun “yagona nuqta” vazifasini bajaruvchi O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portalini ishga tushirilgan bo‘lib, uning asosiy maqsadi qayta ishlash va tahlil qilish uchun mos formatlarda davlat organlari faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlarni taqdim etishdan iborat.

Portal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 -yil 7- avgustda qabul qilingan 232-son qarori asosida faoliyat yuritadi. Bugungi kunga kelib, portaldagi ma’lumotlar soni 2216 tani, ma’lumotni portalga taqdim etgan tashkilotlar soni 120 tani tashkil etib, 737757 ta fayl foydalanuvchilar tomonidan yuklab olingan. Aholining huquq ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki fuqarolik jamiyatining o‘ziga xos belgisidir. Bugungi kunda zamonaviy axborot kommunikatsiyasi texnologiyalari har bir fuqaroga davlat boshqaruvida ishtirok etishning deyarli barcha bosqichlarida qatnashish imkonini yaratib bera oladi, huquq ijodkorligi ham shular jumlasidandir. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda davlat boshqaruvini demoklashtirish va fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish borasida amalga oshirilgan loyihalar qatoriga O‘zbekiston Respublikasi normativ huquqiy hujjatlarning muhokamasi Regulation.gov.uz portalini misol keltirish mumkin.

Portal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 328-son qaroriga asosan ishlab chiqilgan bo‘lib, Qonun hujjatlari ta’sirini baholash tizimining birinchi talqinidir. Portalning asosiy maqsadi muammoni, uni tartibga solishning maqsadi va mavjud echimini tahlil qilish orqali normativ-huquqiy hujjatni qabul qilishda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ijobiy va salbiy oqibatlarni aniqlash; ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjat loyihasida va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimida korrupsiya, boshqa huquqbuzarliklar sodir etilishi uchun sharoit yaratadigan, tadbirkorlik subyektlari uchun ortiqcha ma’muriy hamda boshqa cheklovlarni joriy etadigan yoki joriy etishga sharoit yaratadigan qoidalarni aniqlash; tadbirkorlik subyektlarida asossiz xarajatlar paydo bo‘lishiga olib keluvchi qoidalarni aniqlashdan iborat.

15-Noyabr, 2025-yil

Portalda davlat organlari tomonidan ishlab chiqilgan tadbirkorlik faoliyatiga aloqador qonun hujjatlarining loyihalari va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar joylashtirilib, ro‘yxatdan o‘tgan barcha foydalanuvchilar mazkur hujjatlar borasida o‘z takliflarini berish imkoniyati yaratilgan. Keltirilgan takliflar qonun hujjati loyihasi va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni joylashtirgan davlat organ tomonidan o‘rganib chiqilib qabul qilinadi yoki asoslantirilgan rad javobi beriladi.

Foydalanuvchilar joylashtirilgan normativ-huquqiy hujjatlar borasida nafaqat moddama-modda o‘z takliflarini bildirishlari balki, mazkur hujjatlar borasida o‘z fikr-mulohazalarini bildirib maxsus so‘rovnomanini to‘ldirishlari ham mumkin. So‘rovnoma Qonun hujjatlari ta‘sirini baholash tizimini va mazkur Portalni yanada rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunga kelib muhokama uchun taqdim etilgan qonun loyihalari soni 1149 tani tashkil etib, muhokamasi yakunlangan loyihalar 901 tani, muhokama jarayonidagi loyihalar soni 51 tani tashkil etadi.

FOYDANALILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.Yo‘ldoshev, S. Muhamedova, Z.Xolmanova, R.Majidova, SH.Sultonova. Mutaxassislikka kirish. T.: «Barkamol fayz media», 2018.
 2. Hoshimov K., C.Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. O‘quv qo‘ll. I-jild. – T.: O‘qituvchi, 2010.
 3. Xodjaev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
 4. SH.S.Shodmonova, G.N.Ibragimova, F.O.Mirzaeva. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2022 y.
- Axborot manbalari
1. <http://www.edu.uz>–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti.
 2. <http://www.uzedu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti.
 3. <http://www.gov.uz>– O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali.
 4. www.pedagog.uz
 5. www.apkpro.ru/content/view